

2024– yilning yanvar–iyun oylarida Jizzax viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024– yilning yanvar–iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 10 104,5 mlrd. so'mni yoki 2023– yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 9 291,3 mlrd. so'mni (103,2 %), o'rmon xo'jaligi – 158,8 mlrd. so'mni (103,6 %), baliqchilik xo'jaligi – 106,1 mlrd. so'mni (127,1 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Jizzax viloyatining ulushi 5,9 % ni tashkil etdi.

**10 104,5**


**Jizzax viloyati bo'yicha
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm**

01**9839,5**


**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**

02**158,8 O'rmon xo'jaligi****03****106,1 Baliqchilik xo'jaligi**

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oʻsish surʼatlari




Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot(xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- Oʻrmon xoʻjaligi
- Baliqchilik xoʻjaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xoʻjaligi sohasidagi xizmatlar

2024– yilning yanvar–iyun yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,3 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 1,6 % i – o'rmon xo'jaligi, 1,1 % i – baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keldi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2024– yilning yanvar–iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Baxmal (1342,8 mlrd. so'm) va G'allaorol (1311,3 mlrd. so'm) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Jizzax shahri (204,4 mlrd. so'm), Yangiobod (278,6 mlrd. so'm) va Arnasoy (507,0 mlrd. so'm) tumanlarini keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichi (102,7 %) dan yuqori o'sish sur'atlari Do'stlik (110,5 %), G'allaorol (105,8), Arnasoy (104,2 %), Zafarobod (103,9), Forish (102,9 %), Zomin (102,8 %) tumanlarida kuzatildi. Zarbdor (102,7 %), Sharof Rashidov (101,8), Baxmal (101,6), Paxtakor (101,2), Yangiobod (101,2), Mirzacho'l (101,1 %) va Jizzax shahri (100,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024 – yilning yanvar–iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 9 745,7 mlrd. so'mni yoki 2023 – yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 2709,5 mlrd. so'mni (104,6 %), chorvachilik mahsulotlari – 7 036,2 mlrd. so'mni (102,6 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

27,8 %
Dehqonchilik
mahsulotlari




72,2 %
Chorvachilik
mahsulotlari

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




■ Dehqonchilik mahsulotlari ■ Chorvachilik mahsulotlari

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 72,2 % i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 23,7 % i – fermer xo'jaliklariga, 4,1 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mirzacho'l tumanida (50,0 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Yangiobod tumanida (95,4 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Zafarobod tumanida (14,4 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Jizzax shahrida (0,8 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Paxtakor tumanida (48,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Baxmal tumanida (0,2 %) kuzatildi.

Dehqonchilik


2024– yilning yanvar–iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 2709,5 mlrd. soʻmni yoki 2023– yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 27,8 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 62,5 ming t. sabzavotlar (2023– yilning yanvar–iyuniga nisbatan 0,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 66,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Jizzax viloyati bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna




Chorvachilik



2024– yilning yanvar– iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 7 036,2 mlrd. soʻmni yoki 2023– yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 72,2 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2024– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 93,6 ming t. go'sht (2023– yilning mos davriga nisbatan 1,2 % ga koʻp), 303,8 ming t. sut (1,5 % ga koʻp), 173,3 mln. dona tuxum (2,1 % ga koʻp), yetishtirildi va 4 789,9 t. baliq (26,4 % ga koʻp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 93,6 ming t. go'sht (2023– yilning yanvar–iyuniga nisbatan 1,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 93,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgani kuzatildi.




**Jizzax viloyati bo'yicha
go'sht (*tirik vaznda*)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 303,8 ming tonna sut (2023– yilning yanvar–iyuniga nisbatan 1,5 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 96,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Jizzax viloyati bo'yicha yetishtirilgan sut hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 173,3 mln. dona tuxum (2023– yilning yanvar–iyuniga nisbatan 2,1 % ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 45,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga hissasiga to'g'ri keldi.




Jizzax viloyati bo'yicha yetishtirilgan tuxum hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati




Ovlangan baliqning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 4 789,8 tonna (2023– yilning yanvar–iyuniga nisbatan 26,4 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 75,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



Jizzax viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024– yilning 1– iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, yirik shoxli qoramollarning 6,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini kuzatildi, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 18,9 % i fermer xo'jaliklariga, 65,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 16,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, otlar umumiy sonidan 24,8 % i fermer xo'jaliklariga, 57,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 17,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 7,3 % i fermer xo'jaliklariga, 44,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 48,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlari hissasiga to'g'ri keldi.

2024– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 947,8 ming taga yetdi.


2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 19,9 mingtaga (2,1 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



**Jami bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024 – yilning 1 – iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 89,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Jizzax viloyati
bo'yicha yirik shoxli qoramollarning
umumiy bosh soni, ming bosh**




2024– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 270,6 ming taga yetdi.


2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 4,8 ming taga (1,8 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati




**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 88,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Jizzax viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2024– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 383,2 ming taga yetdi.


2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 78,5 ming taga (3,4 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 65,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.





Jizzax viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh




2024– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 31 080 taga yetdi.

2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 652 taga (2,1 %) ko‘paydi.

Otlar



Jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 58,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Jizzax viloyati bo'yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh




2024– yilning 1–iyul holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh

soni 3 996,9 ming taga yetdi.


2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 115,7 ming taga (3,0 %) kamaydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 48,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Jizzax viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 72-221-51-17
• 72-221-54-00